



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.

*Abdusattarova Sarvinoz Norqo'zi qizi*

*Oriental universiteti*

*„Uzluksiz ta'lim pedagogikasi” kafedrası o'qituvchisi.*

[sarvinozabdusattarova@gmail.com](mailto:sarvinozabdusattarova@gmail.com)+998931309660

*Norqulova Setora*

*Oriental universiteti*

*„Uzluksiz ta'lim pedagogikasi” kafedrası Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi.*

**Annotasiya:** Bu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida turli xil metodlarini qo'llash haqida. Interfaol metodlar tushunchasi bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan, o'quvchilarni faol fikrlashga jalb qiluvchi ta'lim usullaridir. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki uni mustaqil tahlil qilish, xulosa chiqarish ko'nikmalarini ham egallaydi.

**Kalit so'zlar:** Metod, interfaol metodlar, boshlang'ich ta'lim, o'qitish faoliyati, o'quvchi faolligi, ta'lim samaradorligi, mustaqil fikrlash, jamoa.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается применение различных методов учителями начальных классов. Понятие интерактивных методов подразумевает методы обучения, основанные на сотрудничестве между учителем и учеником, вовлекающие учащихся в активное мышление. С помощью этих методов учащиеся не только получают знания, но и овладевают навыками их самостоятельного анализа и формирования выводов.



**Ключевые слова:** Метод, интерактивные методы, начальное образование, преподавательская деятельность, активность учащегося, эффективность образования, самостоятельное мышление, коллектив.

**Abstract:** This article discusses the application of various methods by primary school teachers. The concept of interactive methods refers to teaching methods based on cooperation between teacher and student, engaging students in active thinking. Through these methods, students not only acquire knowledge but also develop skills for independent analysis and drawing conclusions.

**Keywords:** Method, interactive methods, primary education, teaching activity, student activity, educational efficiency, independent thinking, team.

Bugungi kunda ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Interfaol metodlar deganda ta'lim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi ta'lim jarayoning markazida bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyati o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning tashabbuskorligi hammda jamoaviy izlanuvchanligini oshiradi. Interfaol metodlardan foydalanib darslar tashkil etilsa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi, va ta'lim sifati yaxshilanadi. Interfaol usullar orqali o'tilgan darslar o'quvchini ijodiy fikrlashdan olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin metodlar orqali o'tiladigan darslarda an'anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki mavzuni o'zaro faollikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida kechadi.



Albatta har bir ishning maqsadi bo'lgani kabi interfaol usullarni qo'llashdan maqsad bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchilarning faol, erkin fikr yuritishdir. U o'zining intellektual salohiyatini, imkoniyatini namoyon etibgina qolmay, balki o'quv sifatini va samaradorligini oshiradi, taminlaydi. Matematika darslari interfaol metodlar orqali tashkil etilsa dars ham qiziqarli, ham mazmunli o'tadi. Chunki, biz bilamizki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari juda o'yinqaroq bo'lishadi. Shuning uchun ham darslar rang barang metodlar bilan tashkil qilish maqsadga muvofiq. Misol sifatida olsak Ko'paytirish jadvalini tushuntirishda o'quvchi qiynaladi. agar bu mavzu interfaol metodlar orqali o'rgatilsa o'quvchilarning xotirasida qolishi osonroq bo'ladi. Qachon bu metodlar samarali natija bera oladi.

- dars va mavzuning maqsadlari to'g'ri va aniq tanlanganda
- mavzuga mos metodlar tanlay olinsa
- bir metod butun bir darsni qamrab olmasdan, balki kichik daqiqualarni egallasa
- tanlangan metod o'quvchilarga yangi axborotni yetkazib bersa, o'quvchi mavzuni nima haqida ekanligini tushunib oladi.

Biz dars jarayonida o'quvchilarning yoshiga va bilim darajasiga qarab, interfaol metodlardan foydalanib dars o'tamiz.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf darslarida interfaol metodlardan foydalanish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishning eng samarali yo'lidir. Ushbu metodlar o'quvchini tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi passiv tinglovchidan, bilim izlovchi faol ishtirokchiga aylantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol usullar yordamida o'tilgan darslarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, jamoada ishlash qobiliyati va nutq madaniyati jadal rivojlanadi. Eng muhimi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi innovatsion texnologiyalarni darsga tizimli ravishda tatbiq etish orqali bolalarda o'qishga nisbatan barqaror qiziqish (motivatsiya) uyg'ota oladi.



Zero, poydevor davrida olingan mustaqil fikrlash ko'nikmalari kelajakda komil inson va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning asosiy garovidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil.

2.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar (amaliy tavsiyalar)". – Toshkent: Iste'dod, 2008.

3.G'afforova T. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: Tafakkur, 2011.

4.Tolipov O'., Usmonboeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari". – Toshkent: Fan, 2006.

5.Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdieva K. "Pedagogika". – Toshkent: O'qituvchi, 2010.

6. Sidiqova.D.S (2011) zamonaviy ta'limda masofaviy o'qitish tizimi.

7. Ozodova,M.(2011) Boshlang'ich sinflarda sintaksis tushunchalarni o'zlashtirishning imkoniyatlar.